

TA'MINOT ZANJIRLARIDA ZAXIRALARINI BOSHQARISH

Ziyodullayeva Sitora Faxriddin qizi

Millat Umidi universiteti

Xalqaro biznes fakulteti

Biznes boshqaruvi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’minot zanjirlarida zaxiralarni boshqarish masalasi har tomonlama yoritilgan. Avvalo, ta’minot zanjiri tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va asosiy vazifalari bayon etilgan. So‘ngra zaxira tushunchasining mohiyati, uning inglizcha atamasi va amaliyotdagi o‘rnini izohlanadi. Zaxiralar turlari, ularning ishlab chiqarish va yetkazib berish jarayonidagi funksiyalari tahlil qilinib, har bir tur o‘ziga xos vazifalarni bajarishi ta’kidlanadi.

Maqolada, shuningdek, ta’minot zanjirlarida mahsulot yoki xizmatlarni turli shakllarda – sotish, ijaraga berish, almashtirish yoki boshqa usullar bilan iste’molchiga yetkazishdagi strategiyalar ko‘rib chiqilgan. Bu strategiyalar doirasida zaxiralarning samarali boshqarilishi tashkilotlarning bozor talablariga moslashishida, xarajatlarni kamaytirishda va raqobatbardoshligini oshirishda qanday ahamiyat kasb etishi ochib beriladi.

Bundan tashqari, maqolada nazariy qarashlar bilan birga amaliy tavsiyalar ham berilib, zaxira boshqaruvida axborot texnologiyalaridan foydalanish, zamонави yondashuvlar asosida rejalashtirish va optimal zaxira miqdorini belgilashga doir takliflar ilgari suriladi. Maqola ta’minot zanjiri va logistika sohasida ilmiy izlanish olib borayotgan talaba va mutaxassislar uchun foydali nazariy-amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: ta’minot zanjiri, zaxira boshqarushi, zaxira turlari, strategik rejalashtirish, funksional ta’minot, samaradorlik, moslashuvchanlik, innovatsion model, logistika, ishlab chiqarish jarayoni.

Kirish. Bugungi global iqtisodiyotda korxonalar o‘rtasidagi raqobat nafaqat yakuniy mahsulot sifati, balki mahsulotni o‘z vaqtida va samarali yetkazib berish qobiliyati orqali ham belgilanmoqda. Shu jihatdan ta’minot zanjiri muhim rol o‘ynaydi. Ta’minot zanjiri — bu mahsulot yoki xizmatning dastlabki xom-ashyo shaklidan tortib to iste’molchigacha yetib borishigacha bo‘lgan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonlarni muvofiqlashtirish, optimallashtirish va samarali boshqarish esa “**Ta’minot zanjirini boshqarish**” (Supply Chain Management – SCM) nomi bilan tanilgan ilmiy-amaliy yo‘nalishga asos soldi.

SCM sohasi ilk bor **1980-yillarda** nazariy tushuncha sifatida shakllangan bo‘lib, hozirga kelib turli xil sanoat tarmoqlarida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Zamон

bilan hamnafas ravishda, SCM doirasida qo'llanilayotgan metod va texnologiyalar ham takomillashmoqda. Ayniqsa, zamonaviy biznes sharoitida zaxiralarni to'g'ri boshqarish korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim omil hisoblanadi.¹

Zaxiralar – bu ishlab chiqarish, sotuv va xizmat ko'rsatish jarayonlarining uzlusizligini ta'minlovchi vositalardir. Ular noto'g'ri boshqarilgan taqdirda katta moliyaviy yo'qotishlarga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, zaxiralarni boshqarish tizimi SCM ning ajralmas komponenti hisoblanadi. U optimal miqdordagi zaxirani saqlash, ortiqcha yoki kamchilik holatlarining oldini olish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan.

Mazkur maqolada ta'minot zanjirlarida zaxiralarni boshqarishning nazariy asoslari, amaliy usullari, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish holatlari hamda bu boradagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Maqsad – o'zbek iqtisodiyotidagi korxonalar uchun foydali bo'lgan ilmiy xulosalar chiqarish va samarali boshqaruv mexanizmlarini taklif etishdir.

✓ Zaxira turlari va ularning funksiyalari. *Ta'minot zanjiri* – bu o'zaro bog'langan ishtirokchi kompaniyalar guruhi bo'lib, ular o'z manbasidan boshlab, tayyor mahsulot yoki xizmat holatiga kelguncha bo'lgan jarayonda qiymat qo'shadigan jarayonlarda ishtirok etadilar va ushbu mahsulot yoki xizmatlar belgilangan yakuniy iste'molchilarga yetkaziladi.²

Ta'minot zanjirida zaxiralar muhim o'rinn tutadi, chunki ular ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining uzlusizligini ta'minlab beradi. Zaxiralar turli xil shakllarda bo'lishi mumkin va ular har xil funksiyalarni bajaradi. Quyida asosiy zaxira turlari va ularning vazifalari ko'rib chiqiladi:

1.	Xom-ashyo zaxiralari	❖ ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan asosiy materiallar zaxirasi bo'lib, ular ishlab chiqarishning boshlanishi uchun tayyor holda saqlanadi.
2.	Yarim tayyor mahsulot zaxiralari	❖ ishlab chiqarishning muayyan bosqichidan o'tgan, ammo hali yakuniy mahsulotga aylantirilmagan materiallar. Bu zaxira turi ishlab chiqarish bosqichlari orasidagi muvozanatni ta'minlaydi.
3.		❖ iste'molchiga yetkazib berishga tayyor bo'lgan mahsulotlar. Ular mijozga xizmat ko'rsatish

¹ Felea M., Albastroiu Nastase I. Defining the Concept of Supply Chain Management and its Relevance to Romanian Academics and Practitioners // Amfiteatru Economic. – 2013. – Vol. 15, No. 33. – P. 74–88. – URL:

https://www.researchgate.net/publication/283141883_Defining_the_Concept_of_Supply_Chain_Management_and_its_Relevance_to_Romanian_Academics_and_Practitioners

² Lu D. Fundamentals of Supply Chain Management. – [S.I.]: Bookboon, 2011. – 316 p. – ISBN 978-87-7681-798-5. – URL: https://my.uopeople.edu/pluginfile.php/57436/mod_book/chapter/121631/BUS5116.Lu.Fundamentals.Supply.Chain.Mgmt.pdf

	Tayyor mahsulot zaxiralari	tezligini oshiradi va bozordagi talabni qondirishda yordam beradi.
4	Strategik zaxiralar	❖ kutilmagan holatlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan, odatda uzoq muddatga saqlanadigan zahiralar. Bular tabiiy ofatlar, yetkazib berishdagi uzilishlar yoki narx o‘zgarishlariga qarshi himoya vositasi bo‘lib xizmat qiladi.
5.	Operatsion zaxiralar	❖ ishlab chiqarish va yetkazib berishdagi kundalik ehtiyojlar uchun mo‘ljallangan zaxiralar bo‘lib, ular jarayonlar o‘rtasida uzlusizlikni saqlashda yordam beradi.

Har bir zaxira turi o‘z funksiyasiga ega bo‘lib, ularning har biri ta’minot zanjirining samarali ishlashi uchun muhim ahamiyatga ega. Ularni to‘g‘ri rejalashtirish va boshqarish orqali ortiqcha xarajatlarning oldi olinadi, mijozlar ehtiyojlarini o‘z vaqtida qondirish imkoniyati yaratiladi

✓ **Ta’minot turlari va ularning ahamiyati.** Ta’minot turlari ta’minot zanjiri boshqaruvida muhim o‘rin tutadi. Tashkilotlar ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki savdo faoliyatlarini amalga oshirishda turli shakllarda resurslarga muhtoj bo‘ladilar. Shu sababli, ta’minot shakllarini aniqlash va ularni samarali boshqarish orqali korxona o‘z faoliyatini barqaror, izchil va raqobatbardosh tarzda yuritishi mumkin.

Ta’minot – bu faqatgina mahsulot yoki xizmatni xarid qilish emas, balki kengroq iqtisodiy munosabatlar majmuidir. Ta’minot jarayonlari orqali mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga turli shakllarda yetkaziladi.

“Types of supplies – Supply of goods or services or both is defined as sale, transfer, barter, exchange, license, rental, lease or disposal made or agreed to be made for a consideration by a person in the course or furtherance of business.”³ Ya’ni, ta’minot turlari – tovarlar yoki xizmatlarning (yoki ikkalasining) ta’minoti savdo, topshirish, barter, almashuv, litsenziyalash, ijara berish, lizing yoki yo‘q qilish shaklida, shuningdek, shaxs tomonidan ishbilarmonlik faoliyati doirasida yoki uni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan yoki amalga oshirilishi rejalashtirilgan bitim sifatida belgilanadi.

Bu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, ta’minot shunchaki tovar yoki xizmatni yetkazib berishdan iborat emas. U bir necha iqtisodiy mexanizmlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan:

- ✓ **Savdo** – tovar yoki xizmatni pul evaziga sotish;
- ✓ **Barter** – mahsulotlar yoki xizmatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri almashish;

³ Muheesi A. Supply Chain Management. – September 2022. – DOI: 10.13140/RG.2.2.16353.38241. – URL: https://www.researchgate.net/publication/363335546_SUPPLY_CHAIN_MANAGEMENT

- ✓ **Litsenziyalash** – muayyan huquqlarning (masalan, ishlab chiqarish yoki foydalanish) taqdim etilishi;
- ✓ **Ijara yoki lizing** – mulkni vaqtincha foydalanish uchun taqdim etish;
- ✓ **Yo‘q qilish** – mahsulot yoki xizmatdan foydalanishni to‘xtatish yoki undan voz kechish.

Har bir ta’minot turi korxona ehtiyojiga, faoliyat turiga, iqtisodiy sharoitga va strategik maqsadga qarab tanlanadi. Masalan, ishlab chiqaruvchi korxona uchun xomashyo ta’minoti muhim bo‘lsa, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot uchun asbob-uskunalarini ijara olish iqtisodiy jihatdan qulay bo‘lishi mumkin.

Ta’minot turlarining to‘g‘ri boshqarilishi orqali:

- *ishlab chiqarish jarayoni uzlucksiz ta’minlanadi,*
- *xarajatlar optimallashtiriladi,*
- *mijozlarga xizmat ko‘rsatish darajasi oshadi,*
- *zaxiralarni boshqarish yengillashadi.*

Shuning uchun ta’minot turlarini tahlil qilish va ularning ahamiyatini anglash har qanday tashkilot uchun muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi.

✓ **Ta’minot zanjirining strategiyalari.** Ta’minot zanjiri strategiyasi korxonalarning samarali faoliyat yuritishi uchun juda muhim. Har bir mahsulot yoki xizmat uchun mos ta’minot zanjiri strategiyasini tanlash, korxona resurslarini to‘g‘ri boshqarish va xarajatlarni optimallashtirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ta’minot zanjirining samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan yondashuvlar ikki asosiy guruhga bo‘linadi: “funktsional” va “samarali”, yoki “javob beruvchi” va “innovatsion”.

Marshall L. Fisher (1997) o‘zining muhim maqolasida shunday savolni qo‘yadi: “*Mahsulotingiz uchun qaysi ta’minot zanjiri to‘g‘ri?*”⁴ Bu savol ta’minot zanjirining mahsulotning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab tanlanishi kerakligini ta’kidlaydi. **Fisher**, shuningdek, **Naylor, Naim va Berry (1999)** ta’minot zanjiri strategiyasining ikkita muvofiqlashtirilgan xususiyatini ajratib ko‘rsatadi⁵:

1. **“Funktsional” va “samarali” kombinatsiyasi** – Bu yondashuv an’anaviy va standart mahsulotlar uchun to‘g‘ri keladi. Bunday mahsulotlar ko‘p miqdorda ishlab chiqariladi va talabning o‘zgarishi unchalik katta bo‘lmaydi. Samarali zanjir bu holatda past narx va maksimal samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi.

2. **“Javob beruvchi” (moslashuvchan) va “innovatsion” kombinatsiyasi** – Innovatsion va tez o‘zgaruvchan mahsulotlar uchun mos keladi. Bunday mahsulotlar uchun ta’minot zanjiri moslashuvchan bo‘lishi va bozorga yangi mahsulotlar chiqarishda tez va samarali javob berish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Innovatsion

⁴ Fisher, M. L. (March–April 1997). “What is the Right Supply Chain for your Product?” (PDF). Harvard Business Review: 105–116. Archived from the original (PDF) on Mar 19, 2022 – via mba.teipir.gr. – URL: http://mba.teipir.gr/files/Fisher_What_is_the_right_SC_for_your_product.pdf

⁵ Harrison, A. and Godsell, J. (2003), Responsive Supply Chains: An Exploratory Study of Performance Management, Cranfield School of Management, accessed 12 May 2021. – URL: <https://dspace.lib.cranfield.ac.uk/bitstream/handle/1826/377/SWP0103.pdf>

mahsulotlar uchun ta'minot zanjiri tezkor o'zgarishlarga moslashish va yuqori sifatni ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Bu ikkita strategiya korxonalarga o'z mahsulotlarini optimal tarzda ishlab chiqarish va yetkazib berish uchun kerakli yondashuvni tanlashda yordam beradi. Shuningdek, ta'minot zanjirini boshqarishda bozorning talabiga va mahsulot xususiyatlari qarab, strategiyani o'zgartirish zarurati tug'ilishi mumkin.

✓ Zamonaviy ta'minot zanjirida axborot texnologiyalarining roli.

Zamonaviy raqamli davrda ta'minot zanjirlarida axborot texnologiyalarining o'rni tobora ortib bormoqda. Raqamli vositalar yordamida mahsulot harakati, zaxira darajasi, buyurtmalar holati va mijozlar ehtiyojlari aniq va tezkor tarzda nazorat qilinmoqda. Bu esa ta'minot zanjirini samarali boshqarish, vaqt va mablag'ni tejash imkonini beradi.

Bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili (big data), avtomatlashtirilgan tizimlar kabi vositalar korxonalarni real vaqt rejimida zaxiralarni kuzatib borish va ularga mos ravishda qaror qabul qilishga yordam beradi. Masalan, avtomatlashtirilgan tizimlar orqali omborxona zaxiralari to'g'risidagi ma'lumotlar avtomatik yangilanadi, bu esa inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi.

Shuningdek, elektron ma'lumotlar almashinushi (EDI) orqali yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar va chakana sotuvchilar o'rtasidagi axborot almashinushi tezlashadi. Bu jarayon ta'minot zanjiri bo'y lab muvofiqlashtirilgan harakatni ta'minlab, umumiy samaradorlikni oshiradi.

Hozirgi vaqtida ko'plab yirik korxonalar **ERP (Enterprise Resource Planning)** tizimlaridan foydalanib, butun ishlab chiqarish va ta'minot jarayonlarini yagona axborot platformasi orqali boshqarmoqda. Bu esa zaxiralarni optimallashtirish va xaridni to'g'ri rejalashtirish imkonini beradi.

Xulosa. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda ta'minot zanjiri va zaxiralarni boshqarish tizimi har qanday tashkilotning muvaffaqiyati va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Xususan, zaxiralarni ishlab chiqarish va yetkazib berish jarayonlarida muvozanatni saqlash, talab va taklif o'rtasidagi farqni qoplash hamda xaridor ehtiyojlarini to'liq qondirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, zaxiralarni bir nechta ko'rinishga ega bo'lib, har birining o'ziga xos funksiyalari mavjud. Ularni to'g'ri aniqlash va boshqarish korxona resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ta'minot zanjirlarini va zaxiralarni samarali boshqarish bugungi kunda raqobatning kuchayib borayotgan sharoitida tashkilotlarning strategik ustunlikka erishishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu boisdan bu sohaga

e'tiborni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va ilmiy yondashuvlarni amaliyatga tadbiq etish zarurdir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Felea M., Albastroiu Nastase I. Defining the Concept of Supply Chain Management and its Relevance to Romanian Academics and Practitioners // Amfiteatrul Economic. – 2013. – Vol. 15, No. 33. – P. 74–88. – URL: https://www.researchgate.net/publication/283141883_Defining_the_Concept_of_Supply_Chain_Management_and_its_Relevance_to_Romanian_Academics_and_Practitioners
2. Lu D. Fundamentals of Supply Chain Management. – [S.l.]: Bookboon, 2011. – 316 p. – ISBN 978-87-7681-798-5. – URL: https://my.ouopeople.edu/pluginfile.php/57436/mod_book/chapter/121631/BUS_5116.Lu.Fundamentals.Supply.Chain.Mgmt.pdf
3. Muheesi A. Supply Chain Management. – September 2022. – DOI: 10.13140/RG.2.2.16353.38241. – URL: https://www.researchgate.net/publication/363335546_SUPPLY_CHAIN_MANAGEMENT
4. Fisher, M. L. (March–April 1997). “What is the Right Supply Chain for your Product?” (PDF). Harvard Business Review: 105–116. Archived from the original (PDF) on Mar 19, 2022 – via mba.teipir.gr. – URL: http://mba.teipir.gr/files/Fisher_What_is_the_right_SC_for_your_product.pdf
5. Harrison, A. and Godsall, J. (2003), Responsive Supply Chains: An Exploratory Study of Performance Management, Cranfield School of Management, accessed 12 May 2021. – URL: <https://dspace.lib.cranfield.ac.uk/bitstream/handle/1826/377/SWP0103.pdf>